

Hokimlar kelishuvi, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbaini amalga oshirish yo'li bilan 2020 yilga borib CO₂ chiqindilarini kamida 20% ga kamaytirishga ixtiyoriy ravishda olingan majburiyatga erishishda Yevropa Ittifoqining mahalliy, mintaqaviy va milliy hokimiyatlarini birlashtiruvchi asosiy tashabbusi hisoblanadi.

HOKIMLAR KELISHUVI -SHARQ

“Sharqiy hamkorlik va Markaziy Osiyo shaharlarining Hokimlar Kelishuvida ishtirokini qo'llab-quvvatlash”

Asosiy ma'lumotlar

Umumiy maqsadlar:	Loyihaning maqsadi Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyodadagi mahalliy hukumatlarni qazilma yoqilg'ilarga nisbatan ularning kamaytirish yo'lidagi harakatlarini, energiya ta'minotlari xavfsizliklarini yaxshilashni qo'llab-quvvatlash va ularga iqlim o'zgarishini asoratlarini kamaytirishda yanada faolroq ishtirok etishlariga imkon berishdan iboratdir.
Maxsus maqsadlar:	Loyihaning maqsadi ushbu mahalliy hukumatlarni Hokimlar Kelishuviga rag'batlantirish va o'zlarining Barqaror Quvvatlar Harakat rejasini (BQHR) ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashishdir. Asosiy maqsad shaharlar tomonidan energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manбайдan foydalanishning ortishi natijasidai CO ₂ chiqindilaridagi ma'lum miqdorda kamaytirish orqali hayot darajasini yaxshilashgan iboratdir.
Benifitsiar mamlakatlar:	Armaniston, Ozarbaijon, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina va O'zbekiston
Asjsoy maqsad guruhlari:	<ul style="list-style-type: none"> • Mahalliy hokimiyatlar (mavjud yoki ehtimoliy imzolovchilar sifatida) • Milliy / Yarim-milliy hokimiyatlar (ehtimoliy Kelishuv Koordinatorlari sifatida) • Mahalliy hokimiyatlarning tarmoqlari (mavjud yoki ehtimoliy Kelishuvni qo'llab-quvvatlovchilar sifatida) • Donorlar va moliyaviy ishtirokchilar • Boshqa manfaatdor tomonlar (Nodavlat tashkilotlar, energiya agentliklari, xususiy sektor, o'quv yurtlari va boshqalar) • Fuqarolar
Loyihaning ma'muriy tashkiloti:	Yevropa komissiyasi, Rivojlanish va hamkorlik Bosh Departamenti - EuropeAid
Shartnomachi & Konsortsium yetakchisi:	Energy Cities (Energiya shaharlari) – O'z energiyalari kelajagini kashf qilayotgan mahalliy hokimiyatlarning Yevropa Uyushmasi www.energy-cities.eu
Konsortsium a'zolari:	Mahalliy hokimiyatlarning “Iqlim Ittifoqi” Yevropa Uyushmasi (Climate Alliance) www.climatealliance.org “Ukrainaning Samarali Energiya Shaharlari” uyushmasi www.enecities.org.ua/en NL Agentligi www.agentschapnl.nl/en Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (CAREC) www.carecnet.org
Davomiyligi:	2011 yil Sentabr 2011– 2015 yil Iyun

Hokimlar Kelishuvi Sharq ning qisqacha bayoni

Loyiha faoliyatlari asosiy to'rtta vazifani bajarishni maqsad qilgan:

1. **Ilgari surish** – Hokimlar Kelishuvini tizimni qo'llab-quvvatlaydigan va Imzolovchilarga ko'pgina qo'shilayotganlar bilan barcha benefitsiar mamlakatlarda mashhur tashabbusga aylantirish;
2. **O'qitish va Imkoniyatlarni yaratish** – Hokimlar Kelishuvi Ofisi (HKO) Sharq mahalliy hokimiyatlariga o'zlarining rasmiy majburiyatlarini ado qilish imkoniyatini bag'ishlash va Kelishivni Rag'batlantiruvchilarga o'zlarining maqsadli guruhlariga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish qudratini berish uchun o'qitish va imkoniyatlarni yaratish bilan ta'minlaydi;
3. **Qo'llab-quvvatlash xizmati** – Kelishuvga qo'shilish va qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor bo'lgan barcha tomonlarni (shaharlar, mintaqaviy hokimiyatlar, uyushmalar va boshqalar) ma'lumotlar, Imzolovchilarga o'zlarining BQHR ni tayyorlash va amalga oshirishda doimiy yo'rdam bilan ta'minlash va Hududiy Koordinatorlar bilan birgalikda samarali hamkorlik tizimini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash;
4. **Moliyaviy oliygohlar bilan aloqa** – Imzolovchilarning majburiyatlarini, ayniqsa BQHR sarmoyalari majburiyatlarini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun hissadorlarning moliyaviy oliygohlar farmonlariga koalitsiyasini yaratish. Benefitsiarlar, mahalliy va mintaqaviy tashkilotlar, donor vakillari va teleqishli Yevropa Ittifoqining delegatsiyalari hamda boshqa manfaatdor tomonlarni o'z ichiga oluvchi muvofiqlashtirish faoliyatlari. Iqtisodiy jihatdan asoslangan loyihalarni aniqlash uchun yo'riqnomalar bilan ta'minlash.

Bryusseldagi Hokimlar Kelishuvi Ofisi va JRC ni yaqindan muvofiqlashtirish DG DEVCO nazorati ostida kafolatlanadi.

Kutilgan natijalar

Loyiha nihoyasiga kelib biz quyidagi natijalarni kutamiz:

- Hokimlar Kelishuvi anchagina sondagi Imzolovchilar mavjud bo'lgan hamda ommaning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar va barqaror quvvatlar yechimlari to'g'risida xabardorligi juda yuqori bo'lgan mintaqalar bo'ylab mashhur bo'lgan tashabbusdir
- Imzolovchilar o'z majburiyatlarini amalga oshirish, kerakli imkoniyatlarni yaratish va strategiyani amalga oshirish uchun Barqaror Energiya kadastri, Barqaror Energiya Harakat Rejalari va chiqindilar ro'yxatlarida ko'zda tutilganiga muvofiq omilkor darajaga erishishlari shart.
- Shaharlardagi kengaytirilgan imkoniyatlar va Barqaror Energiya Harakat Rejalari moliyaviy manbalardan, jumladan mahalliy moliyaviy vositalar, xalqaro moliyaviy vositalar va boshqa xalqaro voistalar, masalan Qo'shma Investitsiya jamg'armasi (QIJ) va Markaziy Osiyo Investitsiya jamg'armasi (MOIJ) kabilardan foydalanish imkoniyatini yaratadi
- Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni jalb qilish va sarmoyalarni rag'batlantirish orqali o'zlarining BQHR ga kiritgan harakatlar iqtisodiy jihatdan asosli hisoblanadi va yetarli moliyaviy ko'maklar topiladi
- Kelishuvni imzolovchilar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar jamlanadi va chop qilinadi (imzolagan shaharlar tomonidan qamrab olingan fuqarolar soni, CO2 chiqindilarining kamayish miqdori, quvvatlar iste'moli/ishlab chiqarilishi, BQHR dan olingan muhim ma'lumotlar va xok.)
- Hokimlar Kelishuvini qo'llab-quvvatlovchi ishtirokchilar va tashkilotlar tadbirlarni amalga oshirishda muhim hamkorlardir
- Fuqarolarning ijtimoiy va moddiy yashash darajalari ko'tariladi (ish o'rinlarini yaratish, biznesni rivojlantirish va innovatsiyalar, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilmalarni yaxshilash, yanada sog'lom atrof-muhit, ijtimoiy turar-joylar qurilishi, toza quvvatlardan foydalanish kabilar tufayli yashash darajasini yaxshilashga bog'liqdir).
- Quvvatlar xizmatlarining arzonligi va ulardan foydalanish ortib boradi (yoqilg'i qashshoqligining kamayishi)